



## NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARDAGI FONETIK - FONEMATIK NUTQ BUZILISHLARINI O'RGANGAN O'ZBEK OLIMLARI

**Xamidova Muborak Ubaydullayevna**

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

“Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim” kafedrasni  
dotsenti

**Usarova Madina Odil qizi**

“Maktabgacha ta'lim” yo'nalishi 2-kurs  
magistratura talabasi

**Annotatsiya:** Nutqiy aloqa jarayonida kishilar fikr almashadilar va bir - birlariga ta'sir ko'rnatadilar. Nutqiy aloqa til orqali amalga oshiriladi, til bu fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimidir. Ushbu maqolada nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nuqsonining klinik ko'rinishlari, nuqson turiga qarab korreksion ish jarayonida terapiyalardan eng muhim - ertak terapiyaning ahamiyati va o'rni yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Nutq, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar, korreksion ish tizimi, terapiya, ertak terapiya, ertak, nutq kamchiligi, logopedik o'yin.

Nutq to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagagi bolalarning fonetik-fonematik tomonidan rivojlanmaganligi bu tovushlarni talaffuz etish va idrok kilish jarayonidagi kamchiliklar natijasida bolalarda ona tilidagi tovushlarni talaffuz qilish tizimi shakllanishining buzilishidir.

Bunday nutq kamchiligidagi nutqning idrok va talaffuz qilish nuqsonlariga asoslangan fonetik-fonematik tomonining buzilishi birinchi o'rinda turadi. Shu bilan birga ba'zi bolalarda leksik-grammatik taraqqiyotida yaqqol ifodalanmagan orqada qolish hollari ham kuzatilishi mumkin. Bu toifadagi bolalarga xos xususiyat artikulyatsion yoki akustik belgilariga ko'ra farq qiladigan tovushlarning shakllanish jarayonining tugallanmagan bo'lismidir. Bu holda bola nutqida differensiyalanmagan tovushlar bo'lishi tovushlarni almashtirish, nutqda ularni qo'llamaslik, ko'plab tovushlarni buzib talaffuz qilish, shuningdek tovushlarni eshitishga ko'ra yetarli farqlamaslik kuzatiladi.

Nutqni idrok qilishni tekshirish jarayonida olimlar bolalarda birinchi fonematik eshituv nutq normal rivojlangan holda juda erta yuzaga kelar ekan degan xulosaga keldilar. Mualliflarning ta'kidlashicha, bolaning eshitish analizatori funksiyasi erta rivojlanishining boshidayoq akustik jihatdan qaramaqarshi bo'lgan tovushlarni ajrata biladi, rivojlangan fonematik eshituv bolaga faqat to'liq nutqni egallashga yordam beribgina qolmay, ona-tilida bemalol muloqot qila olish malakalarini ham shakllantiradi.

Bolada tovushni to'g'ri talaffuz qilish asosan 5 yoshlarda shakllanadi. Bolalarda to'g'ri talaffuzni tarbiyalash ishi nutqning har tamonlama rivoji bilan bevosita bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim



tashkilotlarda lug'atni boyitishga, to'g'ri talaffuz qoidalarini egallahsga, grammatik shakllar bilan tanishtirishga katta e'tibor beriladi.

Jumladan, L. R. Mo'minova "Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq kamchiliklarini oldini olish bo'yicha korreksion – pedagogik ishlarning nazariy asoslari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida Nutq nuqsoniga ega bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutq kamchiliklarini korreksiyalash, ularni mifikta ta'limga tayyorlash bo'yicha pedagogik ishlar konsepsiyasini ishlab chiqdi. Umumiy va maxsus pedagogikada integratsiya negizida umumpedagogik tamoyillarni aniqlab, turli darajadagi Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini o'stirish bo'yicha korreksion – pedagogik ishlar tizimini yaratib, ilmiy jihatdan asosladi. Tadqiqotchi birinchi bo'lib, ikki tillilik sharoitida Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni kompleks, maxsus logopedik tekshirish metodlarini, hamda nutqdagi rivojlanmaganlik darajalarining matematik modelini ishlab chiqdi<sup>1</sup>.

M. Yu. Ayupova maktabgacha tarbiya yoshidagi fonetiko – fonematik kamchilikka ega bo'lgan bolalar nutqini o'stirish bo'yicha logopedik ishlar tizimini ishlab chiqdi. M. Ayupova (1992) maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining fonetik hamda fonematik tomonini o'rganishda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bolalar orasida keng tarqalganligi aniqladi. Uning ma'lumotigi ko'ra 270 ta tekshiriluvchi 5 yoshli bolalardan 112 tasida (41,5%) tovushlar talaffuzida kamchiliklar borligi belgilandi. Shulardan «R» tovushi talaffuzidagi kamchiliklar 60,7% ni, shovqinli tovushlar 38,4%, sirg'aluvchi 32,1%, til orqa 2,5%, chuqur til orqa 7,1%, «L» tovush talaffuzidagi kamchilik 5,4%, tashkil etar ekan.

M. Ayupova tomonidan olib borilgan fonematik jarayonlarning tekshirish natijalari shuni ko'rsatdiki, fonematik idrokning rivojlanmaganligi tovush tuzilishi bo'yicha o'xshash bo'g'in, so'zlarni bilishda va ularni aniq ajrata olmaslikda, tovushlarni differensiatsiya jarayonini tugallanmaganligida ayniqsa nozik akustik va artikulyatsion belgilari bilan farq qiladigan tovushlarni farqlashda namoyon bo'lar ekan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tovush analizini o'rganish ularda bu malakalarni shakllanmaganligini ko'rsatdi.

Yuqorida nomlari keltirilgan barcha mualliflar bolalarda kuzatiladigan tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar hamda fonematik eshituvning rivojlanmaganligini maxsus logopedik yordamsiz bartaraf etib bo'lmaydi, deb e'tirof etadilar.

L.R.Muminova o'zbek bolalarida kuzatiladigan nutqning rivojlanmaganlik muammosiga doir ilk tadqiqot ishlarini olib borish asosida, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda muloqotga kirishishga ehtiyojning yo'qligi yoki sustligini tavsiflaydi. Olimaning fikricha, "bolalar nutqini faollashtirish yoki nutqiy taqlidni hosil qilish bolaning amaliy faoliyati o'yin, ko'rgazmali vaziyat bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim. Bunga turli xil, ammo zaruriy shart sharoitlarda erishiladi: bola bilan xissiy aloqaga kirishishda, nutqni tushuninshning ma'lum darajasida, diqqat turg'unligida, taqlid motivatsiyasining mayjudligida ko'p narsa o'yinlarning qanchalik qiziqarli tashkil qilinishiga, gapirmaydigan bolalarning ijobjiy xissiyotlariga qanchalik chuqur ta'sir etishiga, logopedning qay darajada ijodkorligiga bog'liqdir"

M.Y.Ayupova maktabgacha yoshdagi bolalarda fonetik-fonematik nutq kamchiliklarini bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan korreksion logopedik ishlar tizimini ishlab chiqish jarayonida maktabgacha yoshdagi o'zbek bolalari bilan logopedik ishlarni quyidagi 3 bosqich, ya'ni tayyorlov, asosiyl, yakunlovchi bosqichda amalga oshirishni tavsiya etadi. Muallifning fikricha, bolalarning nutqiy kamliklarini bartaraf etish jarayonida eshitish diqqatini, artikulyatsiya a'zolarining harakatchanligini rivojlantirish, "tovushni bo'g'inda va so'zda farqlash, to'g'ri talaffuz etilayotgan tovushlarni aniqlash,



tovushlarni nutq jarayonida qo'llash, nutq tarkibidagi tovushlarni mustahkamlash, fonematik idrokni rivojlantirish, tovush tahlili operatsiyalarini shakllantirish, tovushlarning so'zdagи ketma-ketligini aniqlash, nutqning leksik-grammatik tomonini takomillashtirish bo'yicha ishlarni uzviy va tizimli yondashish asosida olib borish kerak".

X.M.Po'latova tomonidan nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda nutqiy faollik darajalarini aniqlash hamda o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar uchun nutqiy faoliyatda fikrlashni faollashtirish imkonini beruvchi korreksion-pedagogik sharoitlar o'rganildi. Shu bilan birga, tadqiqotchi o'z ishida aqli zaif bolalar lug'ati kambag'alligi bilan farq qilinishi, bunday bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ish tizimida umumlashtiruvchi so'zlardan foydalana olmasliklari, oligofren bolalarning ko'pchiligi so'z turkumlari (ot, sifat, fe'l, ravishlarni) aniq tushunmasligini o'rgandi. Bu toifadagi bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish tizimiga oid tavsiyalar ishlab chiqib, mashg'ulotning yetakchi shakli sifatida o'yindan foydalanishni ta'kidladi. Lug'at boyligi yosh normasidan ham miqdor ham sifat ko'rsatkichlari bo'yicha orqada qoladi; bog'lanishli nutq yetarlicha rivojlanmaydi<sup>2</sup>.

Bolalardagi nutqiy kamchilikni o'rganish va uni bartaraf etish muammosini O'zbekiston Respublikasida esa M.Y.Ayupova, R.Sh.Shomahmudova, X.M.Po'latova, M.P.Hamidova, D.Nazarova, Z.M.Axmedova, F.Qodirovalar, N.Abidova, Sh.Shokirova, N.Musaeva; jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida nutqni rivojlantirishning ayrim jihatlari S.G.Kim, V.S.Raxmanova, G'.B.Shoumarov, K.Q.Mamedov, M.F.Hakimova, N.X.Raxmonqulova, P.M.Po'latova, D.A.Nurkeldieva, Sh.Xalilova, L.Sh.Nurmuhamedova, D.B.Yakubdjanovalar tomonidan o'rganilgan

Z.M.Axmedova umumta'lim maktabi o'quvchilarida disgrifiyani bartaraf etishda logopedik ish tizimining muhim mezonlarini ochib bergan. Nutqida kamchiligi bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqidagi buzilishlarning oldini olish va ularni korreksiyalash, o'quvchilarda disgrifiyaning kelib chiqish sabablari va ularni korreksiyalash usullari, o'quvchilarga differensiatsiyali yondashish, orfografik savodxonlik holatini tekshirish metodikasi, orfografiyani o'zlashtirishga doir fiziologik, og'zaki nutqiy va funksional tayyorgarlik holatlarini o'rgangan. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining imlo qoidalarini o'zlashtirishga bo'lgan individual tayyorlik darajasini hisobga olgan holda "orfografiyani o'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish bo'yicha differensiallashgan korreksion-logopedik ishni tashkil etish, nutqida kamchiligi bo'lgan kichik yoshdagi maktab o'quvchilari yozma nutqidagi buzilishlarning oldini olish va tuzatish uchun metodik ko'rsatmalar, tavsiyalarni bayon etgan".

D.B.Yakubdjanova bo'lajak defektologlarda kasbiy ijodkorlikni rivojlanirish muammosini taqiq q etish asosida "Bo'lajak defektologlarda kasbiy ijodkorlikning rivojlanishi shaxsning ijodiy faoliyatida o'z aksini topadigan ijodiy salohiyat, ijodiy tafakkur, ijodiy faollik, ijodiy qobiliyatning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan ijodiy jarayondir", – degan xulosaga keladi.

N.Z.Abidovaning fikricha, fonematik idrok – bolaga tovush tahlil-sintez usuli bo'yicha savod o'rgatishda muhim mezon hisoblanadi. Fonematik idrok rivojlanishidagi kamchiliklar tufayli kelib chiqqan talaffuz nuqsoniga bolalarning mifik tabda ta'lim olishi, savod o'rganishi zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar yetarli shakllanmagan bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Djo'rayeva, S. (2022). BOLALARDA NUTQ TEMPINING BUZILISHI VA UNI BARTARAF ETISHNING KORREKSION USULLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4950>
2. Tkach R. M. T-48 Bolalar muammolari uchun ertakterapiya. - SanktPeterburg: nutq; M.: Sfera. 2008. - 118 b.
3. Islomova, O. (2020). UMUMIY TIPDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALAR NUTQINI TUZATISHDA SIFATLI LOGOPEDIK XIZMAT. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1)
4. Vachkov I.V. Peri terapiyasi. Psixologik ertak orqali ongni rivojlantirish. - M: Os-89, 2007.-144 b.
5. Qodirova R.M. Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta- maxsus ta'lif muassasalari uchun darslik. T.:, "Istiqlol", 2006 y.
6. Dergunskaya V.A., Koshkina A.A., O'yinlar - maktabgacha tarbiyachilar bilan tajriba: O'quv uslubiy yordam - Moskva, Ustoz ta'limi markazi, 2013 - 64 p.
7. Grebenschikova L.G. Marionet terapiyasining tamoyillari. Qo'g'irchoqlar galereyasi. - Sankt-Peterburg: Nutq, 2007. - 80 p.
8. Zinkevich-Evtigneeva T.D. Ertaklar bilan ishlash shakllari va usullari. - Sankt-Peterburg: Nutq, 2008. - 240 b.
9. Zinkevich-Evtigneeva T.D. Peri terapiyasi asoslari.
10. <https://nsportal.ru/>